

SOCIAL ASPECTS OF GENDER EQUALITY IN CONTEMPORARY CONDITIONS

Abstract: This thesis analyzes the social aspects of gender relations in contemporary Uzbekistan. It highlights the measures and initiatives implemented in recent years to ensure gender equality, as well as the adopted decisions, strategies, and laws aimed at developing this field.

Keywords: gender inequality, women, gender equality achievement strategy, pressure, violence, protection, guarantees

About the authors:

Sadullaeva Nodira — PhD researcher (trainee) at the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, nodirasadullaeva@gmail.com

INFORMATSION TELEDASTURDA NUTQNING O'RNI VA MUAMMOLARI

Mahfuza Muxtorova, 

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi nutq madaniyatining roli zamonaviy kommunikatsiya makonidagi, xususan informatsion teledasturlardagi o'rni tahlil qilinadi. Nutq madaniyatining an'anaviy tarkibiy qismlari — to'g'rilik, mantiqiylik, aniqlik, ifodaviylikka izoh beriladi. Shuningdek, nutqning yangi media formatlari sharoitida nutq normalarining muammolari ko'rib chiqilib, amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: nutq madaniyati, notiqlik, kasbiy muvaffaqiyat, kommunikatsiya, televideniye, information dasturlar, axborot.

Zamonaviy dunyoda nutq madaniyati globallashuv, texnologik o'zgarishlar va ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar ta'siri ostida rivojlanishda davom etmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi bilan aloqa vositalari yanada xilma-xil va qulay bo'lib, nutq madaniyatiga ham ta'sir ko'rsatmoqda.

Nutq madaniyati evolyutsiyasi insoniyat tarixi orqali ajoyib jarayonlardan o'tgan. Uning tarixiy jihatlarini o'rganish va tushunish uning zamonaviy hayotimizdagi ahamiyatini yaxshiroq anglashga va muloqot qobiliyatimizni boyitishga yordam beradi. Nutq madaniyati tarixini chuqur o'rganib yanada ko'p dalillarni, holatlarni keltirish mumkin. Bu bo'yicha ko'plab ilmiy va amaliy qo'llanmalar ishlab chiqilgan, ilmiy maqolalar yozilgan. Shuningdek, uning turli jabhalarda tutgan o'rniga oid tadqiqotlar ham mavjud. Ushbu tezisdagi nutq madaniyatining yangiliklar

DOI:
[https://doi.org/10.62499/
ijmcc.vi11.260](https://doi.org/10.62499/ijmcc.vi11.260)

Iqtibos:
Muxtorova, Mahfuza.2025.
INFORMATSION
TELEDASTURDA NUTQNING
O'RNI VA MUAMMOLARI
Markaziy Osiyoda media va
kommunikatsiyalar xalqaro ilmiy
jurnali. 11: 133-139.

dasturlaridagi o'rni tahlil qilinadi.

Avvalo, nutqning tarkibiy qismi haqida to'xtalish zarur. Uning e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan omillaridan biri bu to'g'rilik omilidir.

To'g'rilik: Nutq orqali fikrlarni ifodalashda gap grammatik jihatdan to'g'ri bo'lishini o'zi yetarli emas. Og'zaki nutqda ayniqsa muhim bo'lgan orfoepik me'yorlar: urg'u va talaffuzning ahamiyati katta. Bunday grammatik me'yorlarga rioya qilish ma'ruzachining obro'sini oshiradi. Nutqning tarkibiy qismlari umuman nazariy asoslarini ilmiy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham bir qancha olimlar o'rgangan. Xususan rus lingvisti, filologiya fanlari doktori K. S. Gorbachevich nutqni to'g'ri ifodalash uchun eng avvalo to'g'rilik mezonini bo'lishi kerak deydi. So'zlarning talaffuzi to'g'ri bo'lishi muhim omil ekanini ta'kidlab, so'zni talaffuz qilishda eng avvalo, urg'u o'z joyida bo'lishi ularning yanglish ma'no kelib chiqishini bartaraf etadi (Gorbachevich, 2004) deydi.

Mantiqiylik: Mantiqning buzilishi gapning ma'nosini tushunarsiz qilishi, kommunikativ uzilishlariga olib kelishi mumkin. Zamonaviy texnologiyalar, raqamli media ta'sirida bugungi kunda nutq madaniyatidagi mantiqiylik jihatiga e'tibor kamaygan. Bu borada rus filologi M. A. Glushko "Zamonaviy nutq madaniyatida mantiq tushunchasi so'zning to'g'ri ma'nosida mantiq bilan ko'proq aloqani tobora yo'qotmoqda" (Glushko, 2015) deydi.

Bu holat matnning kompozitsiyasidan kelib chiqib, undagi fikrni mos ketma-ketlikka tizimlashtirishni talab qiladi. Ammo har doim ham tizimlashtirilmagan nutq mantiqsiz bo'lavermasligi ham mumkin.

Aniqlik: Nutq qiluvchi kishi ma'ruza qilnadigan auditoriya qaysi soha vakillari yoki qanday qatlam ekanini inobatga olishi muhim. Biror kasb egasi o'z sohasidagilarga fikrini yetkazish jarayonida o'z sohasiga oid masalalarni to'g'ri va aniq qo'llay bilishi ham zarur. Biror kasbga xos atamalardan to'g'ri joyda foydalana bilish ma'ruzachining so'z kuchini oshiradi. Aksincha, ish jarayonida kasbga oid atamalardan unumli foydalanolmay, jargon so'zlarni qo'llash ikkinchi tarafning ishonchiga putur yetishiga olib keladi. Ma'ruzachining o'z kasbini bilishiga shubha uyg'otadi.

Ifodaviylik: So'zlashuvda shunday holatlar bo'ladiki, biror gap bilan ta'sirni kuchaytirgandan, his-tuyg'uni so'z bilan ifodalagandan ko'ra ayrim vositalar bilan aks ettirish samarali, ta'sirchan bo'ladi. Nutqni yorqin, esda qolarli qiladigan ritorik qoliplar ya'ni metafora, taqqoslash kabilardan foydalanish, imo-ishoralar, jest, yuz ifodalari, intonatsiya, pauza nutq ta'sirini kuchaytiradigan vositalar sanaladi.

Bu haqda rus tilshunoslari S.N. Bassarab, S.A. Letoshnikova, V.V. Tolmacheva shunday deydi: “Intonatsiya va pauzalardan to’g’ri foydalanish qobiliyati ma’ruzachiga o’z fikrlarini ishonchli ifoda etishga imkon beradi. Ovoz kuchini kuchaytirish va zaiflashtirish, uning ohangini oshirish va pasaytirish, nutq tezligini tezlashtirish va sekinlashtirish — bularning barchasi nutqni jonli, samimiy qiladi, ma’no jihatidan eng muhim bo’lgan alohida so’zlar va jummalarni ajratib ko’rsatishga imkon beradi, tinglovchilar e’tiborini ularga qaratadi” (Bassarab, 2017). Bu jihatlarga e’tibor qilish ma’ruzachidan ziyraklikni talab qiladi.

Bugungi kunda innovatsion texnologiyalar har bir sohaga chuqur kirib borayotgan bir paytda raqamlashtirish nutq madaniyatiga ham katta ta’sir o’tkazmay qolmayapti. Raqamlashtirish trendlari fikrni ifoda qilish uchun anchagina qulayliklar bergan. aloqa formatlarini xabarlar, tvitlar Raqamlashtirish, ijtimoiy tarmoqlar hayotimizdan chuqur o’rin olib borayotgan paytda yangi tendensiyalar nutq madaniyati rivojlanishiga salbiy ta’sir o’tkazyapti. Ayniqsa, bu jarayon internetning o’zbekzabon segmentida ko’proq kuzatilyapti. Harflarni qisqartirib yozish, til qoidalariga amal qilmaslik, tilga hurmatsizlik, yangi xorijiy atamalarga o’zbekcha so’zlarni qo’shib yuborish holatlari nutq jarayonlarida ham salbiy aks etmoqda. Bundan tashqari 21 asr yoshlari qatlamida adabiy til me’yorlariga amal qilmaslik, shevalardan haddan tashqari ko’p foydalanish jarayonlari nutqqa ta’sir qilmoqda. Ayrim xorij madaniyati ta’sirida yoshlar orasida qo’pol munosabatda bo’lish, qo’pol so’zlarni ishlatish bemalol leksikonga kirib borganini ham kuzatish mumkin. Ba’zida turli tillarni o’rganish asnosida ham bir tilde muloqot qilmay, xorijiy tillarni aralashtirib tashlash holatlariniyam bor. Bu ham nutq madaniyati me’yorlaridan chetlashishga olib kelmoqda. Hatto oddiy muloqotda “kechirasiz, uzr, marhamat, hechqisi yo’q, bajonidil, iltimos” kabi so’zlar kam qo’llanilmoqda.

“Media nutq tendensiyalari odatiy holga aylanib bormoqda, uslublar doirasini kengaytirmoqda va har xil turdagi og’zaki modellarda, turli mavzuli va janrli yo’nalishdagi materiallarda nutqning ekspressiv imkoniyatlarini to’ldiradi. Ma’lumotlarni tahlil qilish va ularni bilimga aylantirish medianing asosiy roliga aylanmoqda. Bunday madaniy hodisalar zamonaviy media bozorida ko’ngilochar dasturlarni translyatsiya qilishning yangi shakllarini, og’zaki nutq madaniyatining kichik me’yorlarini tizimli ravishda tuzatish va amalga oshirishga imkon beradi. Shu bilan zamonaviy raqamli media platformalarining nutq madaniyatining yanada uyg’un rivojlanishini shakllantirishga yordam beradi. Bu rus avlodlarining adabiy va til an’analari bilan uyg’un turmush tarzini ifodalaydi” (Fuks, 2022). Bu fikrlar zamonaviy media ta’siridagi nutq madaniyati jadal o’zgaraotganini, bu o’zgarishlar

nafaqat o'zbek balki boshqa mamlakatlarda ham kuzatilayotganini ko'rsatadi.

Audiovizual kontentda nutq jarayonlariga quyidagi vositalar ta'sir ko'rsatmoqda: Messenjerlar va elektron pochtaning ta'siri: Hozirgi kunda messenjerlarda muloqot qilish nutqning turli jihatlarini namoyon qilmoqda: emojilar, stikerlar va ovozli xabarlarining roli bugungi nutq jarayonida muhim rol o'ynamoqda. Nutq vositalarining qamrovini oshirdi.

Video qo'ng'iroqlarning ta'siri: Bunga misollar ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Salbiy misol: Suhbatdoshning so'zini doim bo'ladigan, juda tez-tez, so'zlarini oxirigacha talaffuz qilmasdan "yeb qo'yadigan", suhbatdoshning og'zaki bo'lmagan signallariga e'tibor bermaydigan kishi holati. Ijobiy misol: Suhbatdoshining fikrini to'liq ifodalab, gapirib olishiga imkon beradi, bosh irg'ashi, ko'z bilan ham muloqotni to'ldirishi va ochiq chehra bilan turadi. Bu esa o'zaro hamfikrlik, hamkorlik muhitini yaratadi.

Ovozli xabarlarining ta'siri: Uzun, tarkiban tuzib olinmagan, gaplari bir-biriga mantiqan bog'lanmaydigan ovozli xabar o'rniga, nima deyishni oldindan o'ylab, suhbatdoshning vaqtini tejaydigan qisqa, aniq xabarni yuborish yaxshiroqdir. Bunday audio xabarlarini suhbatdosh hamisha e'tiborsiz qoldirmaydi.

Nutq axborot televizion dasturining asosiy elementi bo'lib, shunchaki ma'lumotlarni uzatishdan ko'ra ancha murakkab funksiyani bajaradi. Audiovizual idrok sharoitida jurnalist va muxbirning nutq sifati media mahsulotining ishonchi va muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biri.

"Kishilarning tildan foydalanishi, ya'ni nutq murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Nutq – ko'p sonli shaxsiy va o'ziga xos faoliyatdir. Shu bilan birga nutq ko'rinishlari mavjud sharoit va maqsad, ijtimoiy muhitga ko'ra ham farqlanadi", deydi (Begmatov, 1983).

Televideniyeda to'g'ri tanlangan nutq strategiyasi orqali muvaffaqiyatga erishilgan ko'plab misollarni keltirish mumkin. Ular orasida Opra Uinfri uslubi ko'p bora namuna sifatida keltiriladi. U dunyodagi eng mashhur teleboshlovchilardan biri. Ko'p jihatdan uning muvaffaqiyati suhbatdosh bilan gaplashish, mos so'zlarni topa olishi va ularni suhbatda ochilishga undovchi noyob qobiliyatiga asoslangan. Opra shunchaki savollar bermaydi. U hamdardlik ohangidan, hissiyotga undashdan foydalanib, so'zlarni mohirona tanlab, juda shaxsiy, ammo keskin bo'lmagan savollarni berib, ishonch muhitini yaratadi. O'rinni savollarni, gaplarni topa biladi. Shu sababli, mashhurlar va oddiy odamlar u bilan o'zlarining eng maxfiy sirlarini baham ko'rganini bilmay qoladi. Bu layoqat uning tok-shousini g'oyat mashhur qildi.

Umuman olganda, televideniyeda kadr orti yoki kadrda qilingan har qanday nutq o'z egasining intellektual va ma'naviy

darajasini aks ettirishi mumkin. Shu bois har bir telejurnalist o'z bilimlarini doimiy ba har jihatdan boyitishga e'tibor qilishi zarur.

Yangiliklar translyatsiyasi kontekstida nutq uchta asosiy, o'zaro bog'liq rollarni bajaradi: Axborot va semantik rol: nutq faktlarni tarjima qilishning asosiy kodi bo'lib xizmat qiladi. Uning vazifasi taqdimotning ravshanligi, aniqligi va izchilligini ta'minlashdir. Har qanday noaniqlik yoki grammatik xato kognitiv to'siqqa olib keladi, tomoshabinni xabarning mohiyatidan chalg'itadi.

Psixologik va ta'sirchan rol: ovoz va intonatsiya – bu yangilikning hissiy fonini shakllantiradigan paralingvistik vositalar. Nutq ishonirishi va ilhomlantirishi mumkin (ishonchli, xotirjam tembr va aniq diksiya orqali) yoki rad etishga olib kelishi mumkin (tajovuzkor yoki beparvolik bilan). Aynan nutq orqali teleboshlovchining ekspert, do'st yoki ajratilgan diktir sifatidagi imidji shakllanadi.

Madaniyatshunoslik roli: televideniye eng ommaviy axborot vositasi sifatida millionlab tomoshabinlar uchun nutq madaniyati standarti vazifasini bajaradi. Jurnalistlarning kasbiy nutqi adabiy me'yorning namunasi bo'lishi, umuman jamiyatning til madaniyatini saqlash va rivojlantirishga hissa qo'shishi kerak.

Global o'zgarishlar, raqamlashtirish va efirni “demokratlashtirish” istagi fonida axborot dasturlarida nutq sifati bir qator jiddiy muammolarga duch kelmoqda:

1. Normativlik va savodxonlikning deformatsiyasi. Eng dolzarb muammo — orfoepik va grammatik me'yorlarning buzilishi. Jurnalistlar va taqdimotchilar tezlikni qidirib yoki suflerdan matnni avtomatik o'qishga tayanib, stress, talaffuz va so'zlarni muvofiqlashtirishda xatolarga yo'l qo'yishadi. Bu nafaqat ularga professional sifatida bo'lgan ishonchni susaytiradi, balki ommaviy ongda g'ayritabiiy shakllarni tarqatadi.

2. Stilistik nomuvofiqlik. Sensatsionizmga intilish va yosh tomoshabin bilan “bog'lanish” ga urinish, ba'zida axborot dasturlari uslublarning asossiz qorishuvi bilan yirik xatoliklarga yo'l qo'yiladi. Jiddiy yangiliklar bloklariga og'zaki so'zlar, jargon yoki hissiy jihatdan rang-barang iboralar kirib borishi mumkin, bu esa xabarning holati va obyektivligini pasaytiradi. Yangiliklarni personallashtirishning hozirgi tendensiyasi, shuningdek, maksimal xolislik zarur bo'lgan joylarda haddan tashqari hissiy berilishga olib keladi.

3. Texnik va ritorik kamchiliklar. Ushbu guruhga ovoz, diksiya va nafas olishning yomon ishlashi bilan bog'liq muammolar kiradi. Tomoshabinlar ko'pincha tushunarsiz nutq, monotonlik, ortiqcha tezlik yoki aksincha, g'ayritabiiy pauzalarga duch keladi. Jonli efir va improvizatsiya zarurati sharoitida ritorik tayyorgarlikning yetishmasligi tautologiya (ma'nolarni takrorlash), “og'zaki axlat”

va iboralarni tuzishda mantiqiy xatolarga olib keladi.

Nutq madaniyati bir joyda turmasligi, hamisha bir qolipda bo'lmashligini va har bir avlod uning rivojlanishiga hissa qo'shishini unutmaslik kerak. Bu jamiyatning turmush tarzidagi o'zgarishlarni aks ettiradi. Nutq madaniyatining tarixiy jihatlarini o'rganish va tushunish bizga zamonaviy masalalarga yanada samarali yechim topishga, muloqot boyligini saqlashga yordam beradi.

Nutq madaniyati evolyutsiyasi til, jamiyat va texnologiyadagi o'zgarishlarni aks ettiruvchi doimiy jarayondir. Nutq madaniyatini o'rganish va tadqiq qilish bizga muloqot qilish, o'zaro tushunish shuningdek, dunyomizda til va madaniy xilma-xillikning boyligini saqlab qolish imkonini beradi. Bu jarayonlarda televideniye ayniqsa, axborot teledasturlarining o'rni juda katta.

Axborotning globallasuvi sharoitida television nutqni har jihatdan tartibga solish, til me'yorlariga amal qilinishi zarur ekanini to'g'ri anglash zarur. Bu orqali o'zbek tilining o'ziga xos ijobiy jihatlarini rivojlantirish, uni asrash natijada jamiyatning milliy qadriyatlarini hamda milliy o'zligini asrashida ham muhim vazifani bajarishi mumkin. Bu esa globallasuv jarayonidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Shunday qilib, axborot teledasturidagi nutqning roli shunchaki matnni aytishdan tashqari, ta'sir qilish va madaniyatni shakllantirish uchun kuchli vositaga aylanadi. Mavjud muammolarni hal qilish lingvistik kadrlar tayyorlashga doimiy e'tibor berishni va kasbiy etika va til standartlariga qat'iy rioya qilishni talab qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Bassarab, S.N., Letoshnikova, S.A., Tolmacheva, V.V. (2017). Nutqning ifodaliligi. Fan ramzi, 12. 123-b. (ru). URL: <https://os-russia.com/sborniki/sn-2017-12.pdf>

Begmatov, E., Boboyev, A., Asomiddinova, M. (1983). Adabiy norma va nutq madaniyati. Toshkent. Fan. 12-b. URL: <https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/adabiyot/adabiy-norma-va-nutq-madaniyati-masalalarini-organishda-e-begmatov-va-a-mamatovlarning-xizmatlari>

Fuks, D.A. (2022). Ommaviy axborot vositalarini raqamli transformatsiya qilishning yangi sharoitida ko'ngilochar television dasturlarning nutq madaniyatining zamonaviy namoyishi. Bilim. Tushunish. Mahorat, 4. 202-b. (ru). DOI: 10.17805/zpu.2022.4.17

Gorbachevich, K.S. (2004). Zamonaviy rus tilida talaffuz va stress qiyinchiliklarining o'quv lug'ati Voroneja davlat universiteti. 15. (ru). URL: http://jour.vsu.ru/izdaniya-uchebno-metodicheskie-posobiya/edition/methods/dictionary_difficulties.pdf

Glushko, M.A. (2015). So'zlarning mantiqi: baholash mezonlari (ilmiy nutq matnlarining misollari bo'yicha) Soiskaniye uchenoy darajasida Avtoreferat dissertatsii filologicheskix nauk nomzodi. Rostov na Donu.

Janubiy federal universitet. 12 s. (ru). URL: <https://cheloveknauka.com/v/598732/a?#?page=4>

Muallif haqida:

Muxtorova Mahfuza Saidmurot qizi — O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti tayanch doktoranti,
mmsmahfuza@gmail.com

THE ROLE AND PROBLEMS OF SPEECH IN INFORMATION
TELEVISION

Abstract: This article analyzes the role of speech culture in the modern communication space, in particular in information television programs. Based on an interdisciplinary approach combining knowledge of linguistics, psychology, and management theory, the traditional components of speech culture — correctness, logic, accuracy, and expressiveness - are interpreted. He also analyzes the evolution of speech norms in the context of new media formats of speech. His problems are considered and practical recommendations are given.

Keywords: culture of speech, public speaking, professional success, communication, television, information TV programs, information.

About the authors:

Mukhtorova Mahfuza Saidmurot kizi — Basic doctoral student at the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan,
mmsmahfuza@gmail.com